



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

BILINGVALLIK SHAROITIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI (TALABALAR MISOLIDA)

Muattar Miliyeva

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, dotsent, psixolog (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada bilingvallik sharoitida talabalarning emotsional intellektini rivojlanish xususiyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikki tilli muhitning shaxsning emotsional idroki, empatiya darajasi, emotsiyalarni boshqarish qobiliyati hamda kommunikativ kompetensiyasiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida bilingval ta'lim jarayonida emotsional intellektni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik omillar aniqlanib, ularning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ikki tilli muhitda ta'lim olayotgan talabalarda emotsiyalarni anglash, ijtimoiy moslashuv va empatiya ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi kuzatiladi. Maqolada bilingvallik va emotsional intellekt o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy asosda yoritilib, emotsional intellektni rivojlantirishning konseptual modeli taklif etildi.

Kalit so'zlar: bilingvallik, emotsional intellekt, empatiya, kommunikativ kompetensiya, emotsiyalarni boshqarish, bilingval ta'lim, pedagogik psixologiya, talabalar, madaniyatlararo muloqot, emotsional rivojlanish.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСЛОВИЯХ БИЛИНГВИЗМА (НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ)

Муаттар Милиева

Узбекский государственный университет мировых языков, доцент, психолог (PhD)

Аннотация

В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируются особенности развития эмоционального интеллекта студентов в условиях билингвизма. В исследовании изучается влияние двуязычной среды на эмоциональное восприятие личности, уровень эмпатии, способность управлять эмоциями и коммуникативную компетентность. Кроме того, выявлены педагогические факторы, способствующие развитию эмоционального интеллекта в процессе билингвального обучения в высших учебных заведениях, а также проанализирована их эффективность. Результаты исследования показали, что у студентов, обучающихся в двуязычной среде, наблюдаются более высокие показатели понимания эмоций, социальной адаптации и эмпатии. В статье научно обоснована взаимосвязь между билингвизмом и эмоциональным интеллектом, а также предложена концептуальная модель развития эмоционального интеллекта.

Ключевые слова: билингвизм, эмоциональный интеллект, эмпатия, коммуникативная компетентность, управление эмоциями, билингвальное образование, педагогическая психология, студенты, межкультурная коммуникация, эмоциональное развитие.

FEATURES OF EMOTIONAL INTELLIGENCE DEVELOPMENT IN A BILINGUAL ENVIRONMENT (BASED ON THE EXAMPLE OF STUDENTS)

Muattar Miliyeva

Uzbekistan State World Languages University, Associate Professor, Psychologist (PhD)

Abstract

This article scientifically and pedagogically analyzes the features of emotional intelligence development among students in a bilingual environment. The study examines the influence of a bilingual environment on emotional perception, empathy level, the ability to manage emotions, and communicative competence. In addition, pedagogical factors contributing to the development of emotional intelligence within bilingual education in higher educational institutions were identified and their effectiveness was analyzed. The research findings indicate that students studying in a bilingual environment demonstrate higher levels of emotional awareness, social adaptation, and empathy. The article scientifically explains the interrelationship between bilingualism and emotional intelligence and proposes a conceptual model for the development of emotional intelligence.

Keywords: bilingualism, emotional intelligence, empathy, communicative competence, emotion management, bilingual education, pedagogical psychology, students, intercultural communication, emotional development.

XXI asrda globallashtirish jarayonlari jamiyatning barcha sohalariga, xususan, ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xalqaro hamkorlikning kengayishi hamda madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi natijasida bir nechta tilni bilish shaxsning muhim kompetensiyalaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida bilingviallik masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bilingviallik nafaqat lingvistik bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki shaxsning kognitiv faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalarida talabalar bir nechta tilda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bunday ta'lim muhitida talabalar turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda muloqot qilish jarayoniga kirishadilar. Bu esa ulardan nafaqat til kompetensiyasini, balki rivojlangan emotsional intellektni ham talab qiladi. Chunki madaniyatlararo muloqot jarayonida shaxs o'z emotsiyalarini nazorat qila bilishi, boshqa insonlarning hissiy holatini to'g'ri anglashi hamda samarali kommunikativ strategiyalarni qo'llay olishi zarur bo'ladi. Psixologiya fanida emotsional intellekt tushunchasi shaxsning emotsiyalarni idrok etish, ularni boshqarish hamda boshqalarning emotsiyalarini tushunish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu tushuncha ilmiy muomalaga XX asrning oxirlarida kiritilgan bo'lib, keyinchalik ko'plab psixolog va pedagog olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, emotsional intellekt shaxsning ijtimoiy muvaffaqiyati, kasbiy samaradorligi va psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shaxsning o'z emotsiyalarini anglashi, ularni nazorat qilishi hamda boshqalar bilan samarali muloqot o'rnatishi uning ijtimoiy moslashuv darajasini belgilaydi. Oliy ta'lim tizimida emotsional intellektni rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Talabalik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda shaxsning professional identifikatsiyasi, kommunikativ kompetensiyalari hamda ijtimoiy faolligi shakllanadi. Bilingvial ta'lim muhitida esa ushbu jarayon yanada murakkablashadi, chunki talabalar bir vaqtning o'zida turli til va madaniy tizimlarda muloqot olib boradilar. Natijada ularning emotsional sezgirligi, empatiya darajasi hamda kommunikativ moslashuvchanligi shakllanadi.

Bilingvial muhit shaxsning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ikki yoki undan ortiq tilni bilish shaxsning turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa madaniyatlararo tushunish, tolerantlik va empatiya kabi muhim ijtimoiy sifatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bilingvial shaxslar ko'pincha kommunikativ vaziyatlarni kengroq tahlil qilish, turli ijtimoiy kontekstlarni anglash va moslashuvchan kommunikativ strategiyalarni qo'llash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilingviallikning shaxsning kognitiv faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ikki tilli muhitda yashovchi yoki ta'lim olayotgan shaxslar ko'pincha axborotni qayta ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda qaror qabul qilish jarayonlarida yuqori natijalarni namoyon etadilar. Bu esa, o'z navbatida, emotsional intellekt komponentlari — refleksiya, emotsiyalarni boshqarish va empatiya rivojlanishiga ham yordam beradi. Biroq bilingviallik va emotsional intellekt o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi hali ham to'liq o'rganilmagan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar misolida ushbu jarayonni kompleks o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar nafaqat akademik bilimlarni, balki ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni ham egallashlari zarur. Shu nuqtai nazardan, bilingviallik sharoitida talabalarning emotsional intellekti rivojlanish xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi bilingvial ta'lim muhitining talabalarning emotsional rivojlanishiga ta'sirini aniqlash hamda emotsional intellektning shakllanish omillarini tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishga, shuningdek, bilingvial ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bilingviallik va emotsional rivojlanish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Zamonaviy psixologiya va pedagogika fanida emotsional intellekt shaxsning ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida talqin etiladi. Psixologiya fanida emotsional intellekt tushunchasi ilk bor P. Salovey va J. Mayer tomonidan ilmiy muomalaga

kiritilgan bo'lib, ular emotsional intellektni shaxsning emotsiyalarni idrok etish, tushunish va boshqarish qobiliyatlari majmui sifatida izohlaydilar [1].

Keyinchalik ushbu nazariya D. Goleman tomonidan yanada rivojlantirildi. U emotsional intellektni shaxs muvaffaqiyatining muhim omili sifatida ko'rib, uning tarkibiga bir qator asosiy komponentlarni kiritgan. Goleman konsepsiyasiga ko'ra, emotsional intellekt quyidagi tarkibiy qismlardan iborat [2]: o'z emotsiyalarini anglash (self-awareness), emotsiyalarni boshqarish (self-regulation), motivatsiya (motivation), empatiya (empathy), ijtimoiy ko'nikmalar (social skills). Mazkur komponentlar shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi hamda samarali kommunikatsiyani tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Bilingvallik muammosi ham zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. C. Baker va J. Cummins kabi olimlarning tadqiqotlarida bilingvallikning shaxsning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [3;4]. Ularning fikricha, ikki tilli muhitda ta'lim olayotgan shaxslar ko'pincha muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, axborotni qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonlarida yuqori darajadagi kognitiv moslashuvchanlikni namoyon etadilar.

Pedagogika va psixologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bilingval muhit shaxsning nafaqat kognitiv, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ikki tilli muhitda o'qiyotgan talabalar turli kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish, turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot o'rnatish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonida yuqori natijalarni namoyon etadilar [3].

Shuningdek, madaniyatlararo muloqot shaxsning empatiya darajasini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bilingval shaxslar turli madaniyat vakillarining emotsional reaksiyalarini chuqurroq anglay oladilar hamda kommunikativ vaziyatlarda moslashuvchan strategiyalarni qo'llashga moyil bo'ladilar. Bu esa ularning emotsional sezgirligi va ijtimoiy kompetensiyasining yuqori bo'lishini ta'minlaydi [5]. Shu sababli zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda bilingvallik sharoitida emotsional intellektni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish nafaqat ularning akademik faoliyati samaradorligini oshiradi, balki kelajakdagi professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga ham xizmat qiladi [6].

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, so'rovnoma, taqqoslash metodi, statistik tahlil. Tadqiqotda 120 nafar talaba ishtirok etdi. Ular ikki guruhga ajratildi: bilingval muhitda ta'lim olayotgan talabalar va bir tilli muhitda ta'lim olayotgan talabalar.

Emotsional intellekt darajasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholandi: empatiya, emotsiyalarni boshqarish, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ faollik.

TADQIQOT NATIJALARI

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, bilingval muhitda ta'lim olayotgan talabalarda emotsional intellekt komponentlari nisbatan yuqori darajada rivojlangan.

Jadval 1. Talabalarda emotsional intellekt ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkichlar | Bilingval talabalar (%) | Bir tilli talabalar (%) |
|--------------------------|-------------------------|-------------------------|
| Empatiya darajasi | 78 | 62 |
| Emotsiyalarni boshqarish | 74 | 58 |
| Ijtimoiy moslashuv | 81 | 65 |
| Kommunikativ faollik | 85 | 67 |

Mazkur rasm bilingval muhit va emotsional intellekt o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi. Modelga ko'ra, ikki tilli ta'lim muhiti talabalarni turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilishga undaydi. Madaniyatlararo kommunikatsiya jarayoni empatiya, ya'ni boshqa insonlarning emotsional holatini anglash qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Empatiyaning shakllanishi esa shaxsning o'z emotsiyalarini boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Natijada talabada yuqori darajadagi emotsional intellekt shakllanadi, bu esa ijtimoiy moslashuv, kommunikativ kompetensiya hamda emotsional barqarorlikni ta'minlaydi.



1-rasm. Bilingvallik va emotsional intellekt o'rtasidagi bog'liqlik
MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari bilingvallik shaxsning emotsional rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ikki tili muhitda ta'lim olayotgan talabalar turli kommunikativ vaziyatlarga tezroq moslashish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bunday muhitda talabalar turli til va madaniyat vakillari bilan doimiy muloqot jarayonida bo'lishlari natijasida ularning ijtimoiy tajribasi kengayadi. Natijada ular turli kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish, emotsional reaksiyalarni nazorat qilish hamda boshqalarning hissiy holatini to'g'ri anglash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, bilingval muhit talabalar emotsional intellektning muhim komponentlari — empatiya, emotsiyalarni boshqarish va ijtimoiy moslashuvning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ikki tili ta'lim jarayonida talabalar turli madaniyatlar va kommunikativ uslublar bilan tanishadilar. Bu esa ularning emotsional sezgirligini oshirib, turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot o'rnatish imkoniyatini kengaytiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ilmiy adabiyotlarda keltirilgan qarashlar bilan ham mos keladi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar bilingvallik shaxsning kognitiv moslashuvchanligini oshirishini ta'kidlaydi. Bu esa emotsional jarayonlarni boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bilingval shaxslar ko'pincha turli kommunikativ kontekstlarni tezroq anglash, vaziyatga mos ravishda muloqot strategiyalarini tanlash hamda ijtimoiy munosabatlarda muvozanatni saqlash qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Bilingvallik, shuningdek, quyidagi pedagogik afzalliklarni ta'minlaydi:

- madaniyatlararo kompetensiyaning rivojlanishi — talabalar turli madaniyat vakillarining qadriyatlarini, kommunikativ uslublarini va ijtimoiy normalarini tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar;
- empatiya darajasining oshishi — boshqa insonlarning emotsional holatini anglash va ularga nisbatan ijobiy munosabat bildirish qobiliyati shakllanadi;
- ijtimoiy moslashuvning kuchayishi — talabalar yangi ijtimoiy muhitga tez moslashib, turli kommunikativ vaziyatlarda samarali faoliyat yuritadilar;
- kommunikativ faollikning ortishi — ikki tili muhitda muloqot qilish jarayonining kengayishi talabalarni faol kommunikatsiyaga undaydi.

Bundan tashqari, bilingval ta'lim jarayonida talabalar o'z emotsiyalarini boshqarish va stressli vaziyatlarga moslashish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish jarayonida yuzaga keladigan kommunikativ qiyinchiliklar talabalarda refleksiya, sabr-toqat hamda emotsional barqarorlikni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oliy ta'lim muassasalarida bilingval ta'lim muhitini yaratish nafaqat lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish, balki talabalar emotsional intellektini shakllantirishda ham muhim pedagogik omil hisoblanadi. Bunday ta'lim muhiti talabalarni global ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi hamda ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada bilingval ta'lim tizimini rivojlantirish talabalar emotsional kompetensiyalarini shakllantirish, madaniyatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishda muhim pedagogik yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim.

Mazkur model emotsional intellektning asosiy tarkibiy komponentlarini ifodalaydi. Modelga ko'ra, emotsional intellekt shaxsning emotsiyalarni anglash, boshqarish va ijtimoiy muloqot jarayonida samarali qo'llash qobiliyatlari majmuasidan iborat.

Model quyidagi komponentlardan tashkil topgan:

1. **O'zini anglash (Self-awareness)** — shaxsning o'z emotsional holatini anglash, his-tuyg'ularini tahlil qilish va ularning xatti-harakatlarga ta'sirini tushunish qobiliyatini ifodalaydi.
2. **Emotsiyalarni boshqarish (Self-regulation)** — shaxsning salbiy emotsiyalarni nazorat qilish, stressli vaziyatlarda barqarorlikni saqlash va emotsional reaksiyalarni boshqarish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.
3. **Motivatsiya (Motivation)** — shaxsning ichki motivlari, maqsad sari intilishi va qiyinchiliklarni yengib o'tish jarayonida emotsional barqarorlikni saqlashi bilan bog'liq.
4. **Empatiya (Empathy)** — boshqa insonlarning hissiy holatini tushunish, ularga nisbatan sezgirlik ko'rsatish hamda ijtimoiy munosabatlarda ijobiy emotsional muhitni yaratish qobiliyatini anglatadi.
5. **Ijtimoiy ko'nikmalar (Social skills)** — shaxsning samarali kommunikatsiya olib borish, jamoada ishlash, nizolarni hal qilish hamda ijtimoiy munosabatlarni boshqarish qobiliyatlarini ifodalaydi.

Mazkur komponentlarning o'zaro integratsiyasi natijasida shaxsda yuqori darajadagi emotsional intellekt shakllanadi. Emotsional intellekt esa shaxsning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ kompetensiyasi hamda professional faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.



XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari bilingvallik sharoitida talabalarning emotsional intellekti va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarining shakllanishi o'rtasida muhim bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Zamonaviy ta'lim muhitida talabalar nafaqat akademik bilimlarni, balki ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni ham egallashlari zarur. Shu nuqtai nazardan, ikki tilli ta'lim muhiti shaxsning kompleks rivojlanishini ta'minlaydigan muhim pedagogik omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi.

Birinchidan, bilingvallik talabalarning emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ikki tilli muhitda ta'lim olayotgan talabalar turli kommunikativ vaziyatlarga tezroq moslashadi,

ijtimoiy muloqot jarayonida o'z emotsiyalarini boshqarish hamda boshqalarning hissiy holatini anglash qobiliyatini rivojlantiradilar. Bu esa shaxsning emotsional barqarorligi va psixologik moslashuvchanligini oshiradi.

Ikkinchidan, bilingval muhit talabalarda empatiya hamda emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Turli til va madaniyat vakillari bilan muloqot qilish jarayonida talabalar boshqa insonlarning hissiy holatini chuqurroq tushunishga o'rganadilar. Natijada ularning emotsional sezgirliги, ijtimoiy munosabatlardagi moslashuvchanligi hamda tolerantlik darajasi ortadi.

Uchinchidan, bilingval ta'lim jarayoni madaniyatlararo kommunikatsiyaning rivojlanishiga yordam beradi. Ikki tilli muhit talabalarni turli madaniy qadriyatlar, kommunikativ uslublar va ijtimoiy normalar bilan tanishtiradi. Bu esa talabalar o'rtasida o'zaro tushunish, hurmat va samarali muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Madaniyatlararo kompetensiyaning rivojlanishi esa zamonaviy global jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim omil hisoblanadi.

To'rtinchidan, emotsional intellektni rivojlantirish pedagogik jarayon samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Emotsional intellekt darajasi yuqori bo'lgan talabalar o'quv jarayonida faolroq ishtirok etadilar, o'z fikrlarini erkin ifoda etadilar hamda jamoada samarali hamkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, talabalar o'rtasida ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi.

Beshinchidan, oliy ta'lim muassasalarida bilingval ta'lim muhitini rivojlantirish talabalarda emotsional kompetensiyalarni shakllantirishning muhim pedagogik omili hisoblanadi. Bunday muhit talabalarning nafaqat til kompetensiyalarini, balki ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini ham rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida bilingval ta'limni rivojlantirish hamda emotsional intellektni shakllantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bilingvallik sharoitida ta'lim olish talabalarning emotsional intellektini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish hamda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar bilingval ta'lim muhitida emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali pedagogik metod va texnologiyalarini ishlab chiqishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mayer J., Salovey P. *Emotional Intelligence // Imagination, Cognition and Personality.* — 1990.
2. Goleman D. *Emotional Intelligence.* — New York: Bantam Books, 1995.
3. Baker C. *Foundations of Bilingual Education and Bilingualism.* — *Multilingual Matters*, 2011.
4. Cummins J. *Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire.* — *Multilingual Matters*, 2000.
5. Gardner H. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences.* — New York: Basic Books, 2011.
6. Brackett M., Rivers S. *Emotional Intelligence in Education.* — New York: Guilford Press, 2013.